unicef

МИНИСТЕРСТВО ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Bilim makon
Инновационный центр информационных и педагогических технологий

Learning Passport Uzbekistan, Bolalik akademiyasi raqamli platformasidan foydalanish bo‘yicha qo‘llanma

BOLALIK AKADEMIYASI

http://www.bolakadem.uz

Kirish

Hurmatli hamkasblar,

LP-uz “Bolalik akademiyasi” raqamli platformasi 2021-yili UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasining Maktabgacha ta’lim vazirligi hamda “Bilim makon” innovatsion markazi bilan hamkorligi asosida yaratilgan.

Uni UNICEF va Microsoft kompaniyasining xalqaro ekspertlari ko‘magida, tekshiruvdan o‘tgan xalqaro resurslardan foydalangan holda, axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazining maktabgacha ta’lim va kommunikativ texnologiyalar mutaxassislaridan iborat milliy konsultativ guruh ishlab chiqqan.

U pedagogning kasbiy rivojlanishini yaxshilash; maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda ota-onalik ko‘nikmalarini takomillashtirish; bolalarning har tomonlama rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va ularning salohiyatini ochish; LP-uz “Bolalik akademiyasi” platformasining barcha foydalanuvchilarida raqamli kompetensiyalarni oshirish maqsadida foydalaniladigan qo‘shimcha resurs sifatida maktabgacha ta’lim pedagoglari, bolalar va ota-onalar uchun ishlab chiqilgan.

LP-uz “Bolalik akademiyasi” raqamli platformasi kimlar uchun mo‘ljallangan?

MAQSADLI AUDITORIYA:

1. **Maktabgacha ta’lim pedagoglari** platformadan maktabgacha ta’lim sohasida uzluksiz kasbiy rivojlanish va raqamli ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun foydalanishi mumkin.

   Platformaga zarur pedagogik va o‘quv resurslar joylashtirilgan, masalan:
   - • maktabgacha ta’limga oid me’yoriy hujjatlar, jumladan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari, metodik tavsiyalar va boshqalar;
   - MTT pedagogining ta’lim-tarbiya faoliyatini rejalashtirish;
   - pedagogga yordam beradigan materiallar;
   - maxsus pedagogika;
   - kasbiy rivojlanish kurslari;
   - bolalar uchun o‘yinlar kartotekasi va didaktik materiallar;
   - videomateriallar;
   - bolalar uchun elektron kutubxona.
2. **Ota-onalar** LP-uz “Bolalik akademiyasi” platformasidan uyda samarali o‘qitish va bolalarni tarbiyalash bo‘yicha yangi ko‘nikmalarni egallash uchun foydalanishi mumkin.
3. **Bolalar** ota-onalari bilan birga “O‘yinlar va ko‘ngilochar mashg‘ulotlar”, “Elektron kutubxona” bo‘limlaridagi materiallardan foydalanishi mumkin.
4. **Pedagoglar** va ota-onalar “Maxsus pedagogika” bo‘limidagi “Ota-onalar bilan hamkorlik” materiallaridan bolalarni (jumladan, nogiron bolalar) o‘qitish sifatini oshirish maqsadida aloqalar o‘rnatish va munosabatlarni mustahkamlash uchun foydalanishi mumkin.

unicef

LP-uz “Bolalik akademiyasi” raqamli platformasining texnik afzalliklari:

- www.bolakadem.uz veb sayti orqali platformaga bepul va avtomatik kirish;
- ko‘p sonli foydalanuvchilarni qamrab olishi mumkin va mamlakatdagi barcha pedagoglar platforma taqdim etayotgan afzalliklardan foydalana oladi;
- foydalanish uchun qulay va raqamli ko‘nikmalari kam bo‘lgan foydalanuvchilarga mos keladi;
- materiallar davlat o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan va o‘quv-metodik yordamni tanlash imkoniyati mavjud;
- kerakli axborotni olish mumkin, uni topish va yuklab olish oson, dizayn esa foydalanuvchi bilim olishi uchun platformaning yoqimli bo‘lishini ta’minlaydi;
- foydalanuvchi uchun interaktiv ma’lumotlar o‘rganishni qiziqarli qiladi;
- o‘rganish jarayonida o‘z bilim va ko‘nikmalarini baholab, sertifikat olish mumkin;
- foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tishi va o‘quv kurslari modullarini tugallashi bilanoq o‘sish ko‘rsatkichini kuzatib borish imkonini beradi;
- videolar, PDF fayllar, o‘yinlar va elektron kitoblar ko‘rinishidagi multimedia kontentini taqdim etadi;
- aksariyat materiallarni yuklab olsa bo‘ladi, shuning uchun foydalanuvchilar ta’lim olishni davom ettirishi va internetga ulanmasdan topshiriqlarni bajarishi mumkin.

LP-uz “Bolalik akademiyasi” platformasidan foydalanishdan kutilayotgan natijalar:

PEDAGOGLAR UCHUN

- Maktabgacha ta’lim sohasida kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish.
- Maktabgacha pedagogika va bolalar bilan guruhda ishlash amaliyoti haqidagi tushunchani yaxshilash.
- Raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini mustahkamlash.
- Pedagoglar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarni kengaytirish.

OTA-ONALAR UCHUN

- Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim va tarbiyasini yaxshilash.
- Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim olishi uchun qulay uy sharoitlarini yaratish.
- O‘zining raqamli ko‘nikmalarini mustahkamlash va maktabgacha ta’limni qo‘llab-quvvatlash muhimligini anglash.

BOLALAR UCHUN

- Optimal, kommunikativ, kognitiv, jismoniy, ijodiy, hissiy va ijtimoiy rivojlanish.
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga tayyorgarligini oshirish.
- Butun umr ta’lim olish uchun mustahkam poydevor.

O‘zbekistonning www.bolakadem.uz raqamli platformasiga qanday kiriladi?

1. Saytning nomini kiriting: www.bolakadem.uz.
2. Siz hozir tizimga kirdingiz. Bu – saytning bosh sahifasi (1-rasm).

1-rasm

3. O‘qitish tilini tanlang: mamlakat bayrog‘i belgisini bosing (yuqori o‘ng burchakda) (1-rasm).
4. Войти Kirish so‘zining ustiga bosing.
5. Sistema tasdiqdan o‘tishingizni so‘raydi (2-rasm).



2-rasm



3-rasm

6. Telefon raqamini + XXX XX XXXXXXX formatida kiritishingiz kerak.
   - Mamlakat kodi – +XXX (+998)
   - Mobil operatoringiz kodi – XX (90, 93 , 99 va h.k.)
   - Mobil telefoningiz raqami – XXX XX XX
7. “Keyingi” tugmasini bosing.
8. Telefoningizga SMS tarzida 6 xonali kod keladi (3-rasm).

9. Kodni kiritib, “Keyingi” tugmasini bosganingizdan so‘ng, tizim sizga materialga kirish huquqini beradi.
10. O‘zingizni qiziqtirgan ruknni tanlab, ustiga bosing (4-rasm).



4-rasm

RUKNLAR

Platformada quyidagi ruknlardan foydalaniladi va ular muntazam yangilanadi:

- Me’yoriy hujjatlar
- Pedagogga yordam
- Rejalashtirish
- Maxsus pedagogika
- Covid-19
- Kasbiy rivojlanish
- Elektron kutubxona
- Bolalar uchun o‘yinlar va ko‘ngilochar mashg‘ulotlar

11. Kategoriya ustiga bosilganda ekranda sayt sahifasi ochiladi

    Mening kurslarim Kurslar kutubxonasi

12. Kurs tugagandan so‘ng, u Mening kurslarim ruknida qayd etiladi.

Bu yerda siz o‘tgan barcha kurslar haqidagi ma’lumotlar to‘planadi.

RUKNLAR TARKIBI:

1. **Me’yoriy hujjatlar:**
   - Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi farmon va qonunlar
   - Maktabgacha ta’lim vazirligining buyruqlari
   - Metodik resurslar
   - Bola huquqlari



2. **Pedagogga yordam**

   Rivojlanish sohalari
   - “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom hayot tarzini shakllantirish”
   - “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish”
   - “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari”
   - “Bilish jarayonining rivojlanishi”
   - “Ijodiy rivojlanish”



Rivojlantirish markazlari

- San’at markazi
- Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi
- Til va nutq markazi
- Qurilish, konstruksiyalash va matematika markazi
- Tabiat va ilm-fan markazi

Bolalarning tashkillangan faoliyati turlari

Ko‘rgazmali rivojlantiruvchi muhit



3.3.

Ta’lim-tarbiya faoliyatini rejalashtirish

Oylik va haftalik rejalar (ertalabki davra, frontal mashg‘ulotlar, rivojlantirish markazlari bo‘yicha integratsiyalashgan mashg‘ulotlar, sayr, videomaterial) (5-rasm).

- Sentyabr
- Oktyabr
- Noyabr
- Dekabr
- Yanvar
- Fevral
- Mart
- Aprel
- May



Рис. 5



4. **Maxsus pedagogika** (5-rasm)
Bolalarda rivojlanishning kechikishi (tavsiflar, rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari, mashg‘ulot rejalari, pedagoglarga tavsiyalar, gimnastika videolari) (6-rasm).

- Og‘ir nutqiy nuqsonlar
- Psixik rivojlanishning kechikishi
- Intellektual rivojlanishning kechikishi
- Eshitish qobiliyatining buzilishi
- Ko‘rish qobiliyatining buzilishi
- Tayanch-harakat apparatining buzilishi
- Autizm
- Ota-onalar bilan hamkorlik



5-rasm



6-rasm

5. **Covid-19** (7-rasm)

- Qo‘llanmalar, videodarslar
- MTTning qayta ochilish davrida pedagoglar, ota-onalar, bolalar uchun qoidalar va sanitariya me’yorlari hamda koronavirus tarqalishining oldini olish haqida posterlar
- Videoanimatsiyalar



Рис. 7

6. **Bolalar uchun o‘yinlar va ko‘ngilochar mashg‘ulotlar (animatsiyalar)** (8-rasm)



8-rasm

7. **Kasbiy rivojlanish**

O‘quv kurslari

- Maktabgacha ta’limda gender tarbiya
- Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ko‘rgazmali rivojlantiruvchi muhit
- Muqobil turli yosh guruhlari
- Erta yoshdagi bolalarning rivojlanishi
- Inklyuziv ta’lim
- “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini tatbiq etish

8. **Elektron kutubxona**

- **5–6 yashar bolalar uchun ertak va hikoyalar to‘plami**
- **3–4 yashar bolalar uchun ertak va hikoyalar to‘plami**
- **Maqol va matallar**

9. **Videomateriallar (animatsiyalar, videolar)**

TA’LIM OLISHDAGI RIVOJLANISH

O‘rganish davomidagi o‘sish ko‘rsatkichingizni Mening kurslarim bo‘limida kuzatib borishingiz mumkin (9-rasm).



9-rasm

“Mening kurslarim” bo‘limida siz ochgan barcha bo‘limlar qayd etiladi, ularga qayta kirishingiz, o‘sish ko‘rsatkichingizni ko‘rishingiz, shuningdek, u yerdan kerakli materiallar yoki kurslarni tanlashingiz va yuklab olishingiz mumkin.

BILIMLARNI BAHOLASH

- Kursni tugatgandan so‘ng, bilimingizni test sinovlari orqali baholashingiz mumkin.
- Ta’lim olish natijasi. 75 foiz to‘g‘ri javob to‘planganda natija ijobiy deb baholanadi.
- Sertifikat olish.







BOLALIK AKADEMIYASI

USHBU KURSDAN O‘TGANINGIZ UCHUN RAHMAT, SIZ SAYTNING FAOL FOYDALANUVCHISI BO‘LASIZ VA TAQDIM ETILGAN MATERIALLAR KASBIY DARAJANGIZNI MUNTAZAM OSHIRIB BORISHGA YORDAM BERADI DEGAN UMIDDAMIZ.